

**ISLOM DINIDA PEDAGOGIKANI O‘QITISH VA TA’LIM VA TARBIYA
OLISHDA DINNING O‘RNI.****Ro‘zmuhammedov Sardor Arslon o‘g‘li**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

abdullohxorazmiy@gmail.com

+998995715553

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda biz islom ta’limotida ilm olish masalalarining ifodalanishi, tasavvufiy olimlar fikri, va hozirgi zamon uchun ham din qanchalik o‘ringa egaligi hamda ta’lim-tarbiyada diniy masalalar mavzusi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talimot, saxovat, islom, din, jahon, taraqqiyot, ma’naviyat, din, madaniyat, iymon, ma’rifat, tizim, Qur’oni Karim, ilm, e’tiqod.

Ta’lim — bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

«Qur’on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lib, arab tilida «qiroat» ma’nosini anglatadi. Qur’on 114 suradan iborat. Qur’on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur’on»ning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma’naviy kamolga etishida qay darajada muhim o‘ringa ega ekanligiga amin bo‘lamiz.

Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari tarixiy taraqqiyotida VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo‘lgan va VIII asrda mintaqamizga ham yoyilgan islom dini muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki islom dini, uning asosiy kitobi «Qur’oni Karim» va undan keyingi asosiy manba hisoblangan hadislar Allohga, uning payg‘ambari Muhammad alayhissalomga e’tiqod qilish bilan birga ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o‘zaro ahil bo‘lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqatlilik, poklik, adolat, diyonat kabi insoniy sifatlar haqidagi jihatlari va yaxshi fazilatli hamda odob-axloqli bo‘lishlik yo‘llari bayon etilgan. Xuddi shuningdek, islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat’iy nazar, inson

insonligi uchun ulug'lanadi. Millatchilik, bir-birini kamsitish, talon-tarojlik, irqchilik islomda yo'q va bo'lmagan.

Jahon dinlaridan, umumbashariy taiimotlardan bo'lib hisoblangan Islom dini insonga mohiyat, faoliyatiga maqsad va yo'nalish bemo'vchi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, birlashtirib, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotni tezlashtirish uchun xizmat qiladigan ma'naviyat, ma'rifat odob-axloq tarbiyasining barcha muammolarini o'z ichiga qamrab oladi. Umuman olganda, islom dini yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga oid bo'lgan fikrlar, qarashlar, ta'limotlarning mukammal manbai, yaxlit ilmiy-dunyoviy, diniy tizimidir. Islom dini necha-necha asrlar mobaynida odamlarni, bani bashariyatini ulug' maqsadlar yo'lida birlashtirishga, hamjihat bo'lishga, tinchlik-totuvlikni mustahkamlashga, axloqiy va ma'rifiy kamolotga, halollik va poklikka, iymon va e'tiqodga mehnatsevarlik va vatanparvarlikka, ezgulik va saxovatga, bag'rikenglik va mehroqibatlik, ezgulik maqsadlari yo'lida qonun- qoidaga berishga, o'zaro nizolar, qonli to'qnashuvlarga, milliy, irqiy, diniy kamsitilishlarga yo'l qo'ymaslikka, umumiy uyimiz-kurayni zaminda do'st-birodarlar, ahil hamkor yashashga, umuminsoniy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat boyliklaridan, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan o'zaro bahramand bo'lishga da'vat etib kelmoqda. Islom dinining umumbashariy qadriyat, ilohiy, ilmiy-dunyoviy ta'limot sifatida barhayotligini ta'minlab kelayotgan asosiy manbalari Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardir. Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, «Ilm» so'zi asosidagi «alima» (bilmoq) fe'li negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bu o'zak faqat «Alloh», «Rabb» (Parvardigor ma'nosida), «bo'lmoq» va «gapirmoq» kabi eng ko'p ishlatilgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan.

Islom – ilmu ma'rifatga yetaklovchi muqaddas din. Alloh taolo Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nozil qilgan ilk oyatlarida bunday amr qiladi: "O'qing (ey Muhammad! Butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz ismi bilan! (U) insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni ham) o'rgatdi. U insonga bilmagan narsalarini bildirdi" (Alaq surasi 1-5 oyatlar).

Ushbu oyat mazmunidan bildikki, islomning ilk boshlanishi ilm olishga targ'ib qilish bilan yuzaga kelgan. Shunday ekan, islom – ilm manbai deb aytishga xaqlimiz. Zumar surasining 9-oyatida "...Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?!..." deb marhamat qilingan. Albatta, ularning teng bo'lmasligi hammaga ayon. Chunki ilm insonni ma'naviyatga, ma'rifatga yetaklab darajasini yuksaklarga ko'taradigan yagona manbadir. Imom Abu Dovud va Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor yoki dirham meros qoldirmaganlar, balki ilmni meros qilib qoldirganlar", deb marhamat qilganlar.

Islom ta'limoti insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan dinlardan biri bo'lib, ta'lim-tarbiya sohasiga katta e'tibor qaratgan. Qur'oni Karim va hadislarida ilm olish va o'qitishning ahamiyati, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari haqida ko'plab fikrlar keltirilgan. Islom olamida yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham pedagogikaga oid qimmatli g'oyalar o'z aksini topgan.

Tahlillarga ko'ra, islom ta'limotidagi pedagogik tamoyillar va g'oyalar ta'lim sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ularning aksariyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va zamonaviy ta'limda qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, islom pedagogikasi va zamonaviy pedagogika o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, islom ta'limotidagi qimmatli g'oyalarni ta'lim tizimida qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Islom dinida yoshlarning ilm olishiga juda katta e'tibor berilgan. Yoshlarni ilmga yo'naltirish islom dinining talabi, desak to'g'ri bo'ladi. Hatto ilm olish islomda ibodat darajasiga ko'tarilgan. Bu Qur'oni karim oyatlari va Nabiy sollallohu alayhi vasallam hadislarida ham o'z ifodasini topgan.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam bu haqda: **Ilm talabida bo'lish har bir erkagu ayol musulmonga farzdir**

Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har bir tug'iladigan bola fitratda tug'iladi, ya'ni har bir chaqaloq pokiza bo'ladi, u oq qog'oz kabidir. Bu hadisni muhaddislarimiz ota-ona bobida keltirmasdan taqdir bobida keltirganlari tarbiyaning taqdirga bog'liqligini bildiradi. Tarbiyaga kech qolinmasa bo'ldi.

Qur'oni Karimdagi oyatlardan biri madinalik sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga kelib, uylari uzoqlik qilayotgani bois, uylarini sotib, yaqinroq joyga ko'chib kelishlari haqida shikoyat qilganlarida nozil bo'lgan. Ya'ni uylarni sotishga hojat yo'q, uzoqdan kelayotgan bo'lsalar, har bir bosilgan qadamlariga savob beriladi, mazmunida. «Biz ular keltirgan qadamlarni, bosgan qadamlarni ham yozamiz va ularning asarini ham yozamiz», – deya marhamat qilingan. Tafsirlarning birida bu oyatdagi «ularning izi» degani – bu asarimiz, avlodlarimizdir, degan fikr bildirilgan. Allohning bu oyatidan tushunamizki, Alloh nafaqat amalimizni, balki avlodlarimiz amalini ham o'zimizga yozadi. Shuning uchun tarbiya vojib bo'ladi. Orqamizdan yaxshi tarbiyali farzand qoldiraylikki, ortimizdan faqat savob borsin, yomonlik bormasin. Islomda tarbiya vojibdir. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga

maqto'vlar bo'lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. «Robbil a'lamiyin» – butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya'ni nazorati, kuzatuvini lahza to'xtatsa, olamlar izdan chiqib ketadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollalohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har bir tug'iladigan bola fitratda tug'iladi, ya'ni har bir chaqaloq pokiza bo'ladi, u oq qog'oz kabidir. Bu hadisni muhaddislarimiz ota-ona bobida keltirmasdan taqdir bobida keltirganlari tarbiyaning taqdirga bog'liqligini bildiradi. Tarbiyaga kech qolinmasa bo'ldi. Shunday ekan diniy tomondan pedagogik yondoshgan holatda kelajak avlodlarga, farzandlarimizga ta'lim-tarbiya bersak chin ma'noda barkamol avlodni yetishtirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Zunnunov. Xalq pedagogikasida akliy tarbiya. // Xalq ta'limi, 1994-yil 3-4-sonlari.
2. Amir Temur. Zafar yo'li — T.: «Hyp», 1992. 4. «Avesto», Tarixiy — adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: «Sharq», 2001.
3. Ziyo, A. (2008) Islom va ma'rifat.
4. Buxoriy, M. (2020). Al-Jom'e as-sahih. Toshkent islom universiteti.
5. Sulaymanov, U. (2022). Islomda ta'lim-tarbiya masalalari. Toshkent.
6. Qur'oni Karim (2019). Alouddin Mansur tarjimasi. Toshkent: Sharq.